



UO'K: 372.4-051:37.091.3(100)

Nasiba URAZOVA,
A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
E-mail: urazovanasiba2@gmail.com

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, DSc L.Qoraxanova taqrizi asosida

ANALYSIS OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS' METHODOLOGICAL PREPAREDNESS AND THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS (TIMSS)

Annatation

The article analyzes the methodological preparedness of primary school teachers and the development of students' logical thinking in accordance with the requirements of the TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) international assessment program. The study is based on the results of a questionnaire survey conducted among 4,053 primary school teachers from the Khorezm, Fergana, and Bukhara regions, as well as the city of Tashkent. The findings indicate that the level of methodological preparedness is relatively high among teachers in Bukhara and Tashkent, while a greater need for innovative approaches remains in the Fergana and Khorezm regions. The article presents evidence-based recommendations for integrating international assessment criteria into the national education system and for enhancing the methodological competence of primary school teachers.

Key words: Primary education, methodological preparedness, logical thinking, TIMSS, pedagogical competence, quality of education, analysis.

АНАЛИЗ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В КОНТЕКСТЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ (TIMSS)

Аннотация

В статье проведён анализ методической подготовленности учителей начального образования и процесса развития логического мышления у обучающихся в соответствии с требованиями международной программы оценки TIMSS. Исследование основано на результатах анкетного опроса, проведённого среди 4053 учителей начального образования Хорезмской, Ферганской, Бухарской областей и города Ташкента. Полученные данные показали, что уровень методической подготовленности учителей в Бухарской области и городе Ташкенте является относительно высоким, тогда как в Ферганской и Хорезмской областях сохраняется потребность во внедрении инновационных подходов. В статье представлены научно обоснованные рекомендации по интеграции международных оценочных критериев в национальную систему образования и развитию методической компетентности учителей начального образования.

Ключевые слова: Начальное образование, методическая подготовка, логическое мышление, TIMSS, педагогическая компетентность, качество образования, анализ.

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGI VA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (TIMSS) KONTEKSTIDAGI TAHLILI

Аннотация

Maqolada boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi va o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalalari TIMSS xalqaro baholash dasturi talablari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot Xorazm, Farg'ona, Buxoro viloyatlari hamda Toshkent shahrida 4053 nafar boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari ishtirokida o'tkazilgan so'rovnom natijalariga asoslangan. Tahlil natijalari Buxoro va Toshkent shaharlarida metodik tayyorgarlik darajasi nisbatan yuqori ekanini, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida esa innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatdi. Maqolada xalqaro baholash mezonlarini milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish va o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, metodik tayyorgarlik, mantiqiy fikrlash, TIMSS, pedagogik kompetensiya, ta'lim sifati, tahlil.

Jamiyatning kelajakdagi ijtimoiy va iqtisodiy barqaror rivoji, avvalo, ta'lim tizimining sifat darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, mustaqil tahlil qila oladigan, innovatsion yondashuvga ega va yuqori intellektual salohiyatni namoyon eta oladigan mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunda davlat boshqaruvi darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur yo'nalishdagi strategik maqsad va vazifalar mamlakat rahbari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, farmon va qarorlarda tizimli ravishda belgilab berilgan [1, 2, 3, 4].

Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Xususan, TIMSS 2019 Assessment Frameworks hujjatlarida o'quvchilarning matematika va tabiiy

fanlar bo'yicha natijalari ularning o'qituvchilari tomonidan qo'llanilayotgan o'qitish strategiyalari, metodlari hamda ta'lim jarayonini tashkil etish sifati bilan chambarchas bog'liq ekanligi qayd etiladi.

Tadqiqot konsepsiyasida o'qituvchilarning fan mazmunini chuqur bilishi bilan bir qatorda, uni o'quvchilarga samarali yetkazib bera olish, turli didaktik yondashuvlardan maqsadga muvofiq foydalanish va o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik kompetentligining ahamiyati ta'kidlanadi. Shu bois, TIMSS doirasida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlaridagi natijalariga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi [6].

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni ham tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2023-yilda esa 70 dan ortiq ishtirokchilarni qamrab olganligida ham ko'rish mumkin. TIMSS 2023 tadqiqot natijalariga ko'ra, Singapur, Xitoy Taypeyi, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Gonkong kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan [8].

O'qituvchilarni TIMSS xalqaro baholash dasturi talablariga tayyorlashning amaliy mexanizmlari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, M. Ergasheva va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan "Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablar uchun treninglar o'quv dasturi" da o'qituvchilarning xalqaro baholash topshiriqlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, darslarni TIMSS topshiriqlari mazmuni va tuzilmasiga yo'naltirib rejalashtirishga oid metodik tavsiyalar bayon etilgan [5].

Mahalliy tajribalarni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim tadqiqotlarda TIMSS xalqaro tadqiqotlarining dunyo

1-jadval

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining faoliyat yuritadigan hududlar bo'yicha tahlili (so'rovnomaga natijalari asosida)

Kategoriya	Foiz (%)	Ilmiy tahlil
Toshkent shahri	33,4	Poytaxtdagi o'qituvchilarning ulushi eng yuqori, bu ta'lim infratuzilmasining rivojlanganligi bilan izohlanadi.
Xorazm viloyati	16,3	Hududdagi o'qituvchilarning ishtiroki o'rtacha darajada, so'nggi yillarda metodik faoliyat faollashgan.
Farg'ona viloyati	15,8	Farg'ona vodiysi hududida innovatsion metodik yondashuvlar joriy etilmoqda.
Buxoro viloyati	34,5	Buxoro viloyati o'qituvchilari eng faol ishtirok etgan, bu metodik xizmatlar samaradorligini ko'rsatadi.

So'rov natijalariga ko'ra, eng faol hududlar sifatida Buxoro (34,5%) va Toshkent shahri (33,4%) ajralib turadi. Bu holat mazkur hududlarda metodik jarayonlar nisbatan samarali ishlayotgani va o'qituvchilar faoliyatida innovatsion metodik yondashuvlar keng qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Farg'ona (15,8%) va Xorazm (16,3%) viloyatlarida esa so'nggi yillarda metodik faollikning oshishi kuzatilgan bo'lsa-da, metodik tayyorgarlikni xalqaro talablar darajasiga moslashtirishda qo'shimcha resurs va treninglar zarurligi aniqlangan. Umuman olganda, hududiy natijalar o'qituvchilarning metodik tayyorgarligida Toshkent shahri va viloyatlar o'rtasida farq mavjudligini ko'rsatadi. Tahlil

miyosidagi natijalari va xorijiy tajribalarni tahlil qilgan. Tadqiqotda O'zbekiston uchun eng samarali xorijiy tajribalarni aniqlash va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish yo'llari ko'rsatilgan [7].

Xorazm, Farg'ona va Buxoro viloyatlari hamda Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) xalqaro baholash dasturi talablariga mos metodik kompetensiyalar holatini aniqlashga qaratilgan keng qamrovli monitoring tadqiqoti o'tkazildi. Mazkur tadqiqot doirasida hududiy ta'lim jarayonining pedagogik tashkil etilishi, boshqaruv va metodik ta'minot xususiyatlari ham kompleks tahlil qilindi. So'rovnomaga jarayoniga jami 4053 nafar respondent jalb etilib, ularning hududlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha shakllandi: ishtirokchilarning 16,3 foizi Xorazm viloyatidan, 34,5 foizi Farg'ona viloyatidan, 15,8 foizi Buxoro viloyatidan hamda 33,4 foizi Toshkent shahridan iborat bo'ldi. Quyida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi bo'yicha hududlar kesimidagi tahlil (TIMSS xalqaro baholash dasturi kontekstida) tahlil keltirib o'tiladi (1-jadval).

shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning 76,8% qismi bakalavr darajasiga ega bo'lib, bu boshlang'ich ta'lim tizimidagi asosiy kadrlar qatlamini tashkil etadi. I - toifa o'qituvchilar (31,0%) eng faol segmentni tashkil etgan, bu ularning amaliy tajribasi va metodik yetukligi yuqori ekanini bildiradi (2-jadval).

Biroq magistratura bosqichini tamomlagan o'qituvchilar ulushi (8,4%) nisbatan past bo'lib, ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish zarurligi aniqlangan. Bu natija xalqaro baholashlarda yuqori natijalarga erishish uchun ilmiy-metodik tayyorgarlikni chuqurlashtirish muhimligini ko'rsatadi.

2-jadval

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ma'lumoti bo'yicha tahlil

Kategoriya	Foiz (%)	Ilmiy tahlil
Oliy (magistratura)	8,4	Magistratura bosqichidagi o'qituvchilar nisbatan kam, lekin ilmiy tayyorgarlik darajasi yuqori.
Oliy (bakalavr)	76,8	Eng katta ulushni tashkil etadi, bu asosiy pedagogik kadrlar tayyorlovchi qatlamdir.
Tugallanmagan oliy	8,1	Oliy ta'limni tugatmagan o'qituvchilar soni kamaymoqda, lekin ular uchun metodik kurslar zarur.
O'rtacha maxsus	6,7	Pedagogika kolleji bitiruvchilari amaliy tajriba jihatdan faol, ammo nazariy tayyorgarlik past.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-2-sinf o'qituvchilari so'rovda eng faol qatlamni tashkil etdi (mos ravishda 26,1% va 26,9%), bu esa TIMSS kompetensiyalarining erta bosqichda shakllanishi uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlarning amaliyotda keng qo'llanilayotganini bildiradi (3-jadval). 3-sinfda ishtirok

3-jadval

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining dars beradigan sinflar bo'yicha tahlil

Kategoriya	Foiz (%)	Ilmiy tahlil
1-sinf	26,1	TIMSS kompetensiyalari shakllanishining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.
2-sinf	26,9	Bu bosqichda o'quvchilar fikrlash va mantiqiy tahlilni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarga jalb qilinadi.
3-sinf	21,7	Metodik yondashuvlarda barqarorlik kuzatiladi, lekin ishtirok nisbatan past.
4-sinf	25,4	4-sinf TIMSS baholash bosqichi bilan bevosita bog'liq bo'lib, o'qituvchilarning tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, sinflar kesimidagi natijalar boshlang'ich ta'lim tizimida metodik tayyorgarlikning 1-2-sinflarda nisbatan samaraliroq amalga oshayotganini, 3-4-sinflarda esa xalqaro baholash talablariga mos innovatsion metodlarni kengroq joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Toifalar 4-jadval

kesimida I - toifa o'qituvchilar soni eng ko'p bo'lib, bu ularning kasbiy rivojlanishda yetakchi o'rinni egallayotganini ko'rsatadi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi hudud, malaka va o'qituvchilik toifalari bo'yicha farqlanadi (4-jadval).

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining toifalar tahlili

Kategoriya	Foiz (%)	Ilmiy tahlil
Oliy toifa	17,3	Metodik tajribasi yuqori, o'qituvchilarning ilg'or qatlami.
I toifa	31,0	Eng katta ulushni tashkil etadi; bu o'qituvchilar amaliy faoliyatda yetakchi.
II toifa	25,6	Barqaror metodik yondashuvga ega, lekin innovatsion metodlardan foydalanish zarur.
Mutaxassis (toifasiz)	26,1	Yangi kadrlar guruhi bo'lib, metodik qo'llab-quvvatlash va treninglarga ehtiyoj mavjud.

Eng faol qatlam - bakalavr darajasidagi I - toifa o'qituvchilar bo'lib, ular TIMSS kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Buxoro viloyati va Toshkent shahri hududlaridagi yuqori faollik metodik xizmatlar tizimining samaradorligini aks ettiradi. Umuman olganda, TIMSS talablariga mos metodik tayyorgarlikni yanada rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar, interfaol treninglar va refleksiv tahlil mexanizmlariga e'tibor qaratish zarur.


So'rov natijalariga ko'ra, sinfdan tashqari faoliyatda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish jarayonida metodikalardan foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada ekanligi aniqlangan. Jumladan, respondentlarning 66,1 foizi bu borada imkoniyatlar "mavjud" deb baholagan bo'lsa, 10 foizi "qisman mavjud", 16,6 foizi esa "mavjud emas" deb javob bergan (1-rasm).



1-rasm. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sinfdan tashqari faoliyatda metodikalardan foydalanish imkoniyatlari (TIMSS xalqaro baholash dasturi kontekstida)

Shuningdek, 4053 nafar o'qituvchidan iborat so'rovda 10 foiz atrofidagi ishtirokchilar "yangi metodikalarga ehtiyoj bor", qolgan qismi esa yangi texnologiyalarni qo'llash zarurligini ta'kidlagan. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning aksariyati mavjud metodik imkoniyatlardan samarali foydalana olayotgan bo'lsalar-da, ma'lum bir qismi uchun innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni joriy


etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat boshlang'ich ta'lim tizimida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini xalqaro baholash mezonlari asosida modernizatsiya qilish zaruratini yanada kuchaytiradi. Quyidagi diagrammada boshlang'ich ta'lim fanlarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun foydalanilayotgan yo'nalishlarning foiz ko'rsatkichlari aks etgan (2-rasm).



2-rasm. Fanlar kesimida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatlar ulushi (%)

Diagramma tahliliga ko'ra, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematika (73,8%) va o'qish fanlari (53,6%) yetakchi o'rin tutmoqda. Bu fanlar TIMSS baholash mezonlaridagi bilimni qo'llash va tahliliy tafakkurni o'stirish komponentlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Tabiatshunoslik (39,5%) fani o'quvchilarda sabablilik va natijaviylikni anglash ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi, ammo texnologiya (14%)

va tasviriy san'at (12,9%) fanlarida mantiqiy asoslash mashqlari hali keng joriy etilmagan. Bu esa metodik tayyorgarlikni fanlararo integratsiya asosida yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi. Quyidagi diagrammada o'qituvchilarning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda qo'llayotgan metodlari bo'yicha so'rov natijalari ko'rsatilgan (3-rasm).




3-rasm. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilar qo'llayotgan metodlar tahlili

Mantiqiy tafakkurni shakllantirishda eng ko'p qo'llanilayotgan metodlar - tushuntirish (52,2%), suhbat (44,3%) va evrestik (41,3%) usullardir. Biroq hikoya (20,4%) va boshqa innovatsion metodlar (2,6%) kam qo'llanmoqda. Bu holat o'qituvchilarning an'anaviy yondashuvlarga tayanishi va xalqaro baholash talablariga mos muammoli, tadqiqotga yo'naltirilgan metodlarni kengroq joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Eng ko'p qo'llaniladigan metodlar - tushuntirish (52,2%), suhbat (44,3%) va evrestik (41,3%) metodlaridir. Hikoya (20,4%) va boshqa innovatsion metodlar (2,6%)

nisbatan kamroq ishlatiladi. Bu esa o'qituvchilarning an'anaviy yondashuvlarga tayanayotganini, ammo interfaol va muammoli metodlarni kengroq joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Fanlar va metodlar kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda eng faol yo'nalishlar matematika fani va tushuntirish metodi bilan bog'liq. Bu ikki komponent o'quvchilarda tahliliy va refleksiv tafakkurni shakllantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi (4-rasm).



4-rasm. Dars jarayonida qo'llanilayotgan metodikalarning samaradorligi bo'yicha o'qituvchilar fikri (TIMSS xalqaro baholash dasturi kontekstida)

Olingan natijalar xalqaro baholash dasturlari, xususan TIMSS mezonlari bilan solishtirilganda, O'zbekiston ta'lim tizimida metodik tayyorgarlik va tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirish o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. TIMSSning "Applying and reasoning" (Bilimni qo'llash va asoslash) domenlari aynan boshlang'ich bosqichdagi o'quvchilarda tahliliy fikrlash, muammoni hal qilish, dalillash kabi yuqori kognitiv ko'nikmalarni baholaydi. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini xalqaro baholash mezonlariga integratsiyalash ta'lim sifati uchun strategik ahamiyatga ega.

Tahlil natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

Toshkent shahri va Buxoro viloyatidagi o'qituvchilar metodik tayyorgarlikda yetakchi o'rinda, boshqa viloyatlar uchun qo'shimcha metodik treninglar zarur.

Bakalavr darajasidagi I - toifa boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari TIMSS kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi, biroq magistratura bosqichini tugatgan o'qituvchilarda ilmiy tayyorgarlikni kengaytirish zarur.

Matematika va o'qish fanlari mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda yetakchi, ammo texnologiya va san'at fanlarida integratsion yondashuv talab etiladi.

An'anaviy metodlardan innovatsion metodlarga o'tish ta'limda tahliliy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va kreativ yondashuvlarni kuchaytiradi. Natijada, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini xalqaro baholash dasturlari asosida modernizatsiya qilish O'zbekiston ta'lim tizimini jahon standartlariga yaqinlashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.11.2020 y., 07/20/4884/1484-son).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun". O'RQ-637-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2024 - yil 21 - iyundagi PQ-231-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".// <https://lex.uz/uz/docs/-6981085>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 29 - aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
5. Ismailov A.A., Daminov X.J., Kosimova Z.A., Pirimov G.A., Djusupov N.M., Abduganiyeva J.R., Omonova Sh.A., Qodirova M.N. Kreativ fikrlashni baholash "Ta'lim sifati baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi" Toshkent — 2021. - B 125.
6. Mullis I.V.S., Michael O.M. TIMSS 2019 Assessment Frameworks. TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2019, 3 p.p. Boston, USA
7. Pirimov G.A. Ta'lim sifati baholash bo'yicha o'tkazilgan TIMSS xalqaro tadqiqotlarining dunyo miqyosidagi natijalari va xorijiy tajribalar. "Ta'limdagi xalqaro tadqiqotlarining Yangi Ўzbekiston taraqqiёtidaги ўрни" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya maqolalar to'plami – 91 Toshkent: Ta'lim sifati baholash b'ycha xalqaro tadqiqotlarini amalga oshirish milliy markazi, 2022. – 274 b.
8. TIMSS 2023 tadqiqotining hisoboti: Ўzbekiston natijalari / Tuзуvchilar: Ф. Х. Холмирзаев, Ж. Нарзиев, А. Шакиров. – Toshkent: Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, 2024. – 42 b. – Manba: Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
9. Эргашева М. "Педагог кадрларни кайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизimini янада такомиллаштириш". Ўzbekiston-Германия ҳамкорлик Меморандуми доирасида "Change management" модули б'ycha ишлаб чиқилган қўлланма. Услубий қўлланма.-Т.; 2019 й. 17-20 б.
10. Эргашева М. Ўқитувчиларнинг инновацион салоҳиятини ривожлантириш - малака оширишнинг муҳим омили. "Замонавий узлуksiz таълим муаммолари: инновация ва истикболлар". Toshkent, 27 апрел, 2018 й., 415-416 б.
11. Эргашева М., Адизова З. Халқаро тадқиқотларга тайёргарлик куришга йўналтирилган таънч мактаблар учун тренинглр ўқув дастури. Методик тавсия. Таълим сифатини баҳолаш б'ycha халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази. Toshkent-2021. -140 б.